

O'ZBEKISTON VA AQSH O'RTASIDAGI SIYOSIY VA STRATEGIK HAMKORLIK EVOLYUTSIYASI

Amirqulova Feruza Muzaffar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi e-mail: feruzamuzaffarqizi@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbekiston 1991-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnata boshladi. Xususan, 1991-yilning 25-dekabrida AQSH O'zbekiston mustaqilligini rasmiy tan olgan kun sifatida tarix sahifalariga kirgan bo'lsa, 1992-yil 19-fevralda ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'zbekiston so'nggi yillarda keng ko'lamlil va izchil o'zgarishlar amalga oshirishda samarali harakatlar qilayotganligini ko'rishimiz mumkin ushbu maqolada O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi siyosiy va strategik hamkorlik evolyutsiyasi bilan tanishasiz va kerakli ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, AQSH, Afg'oniston, diplomatik munosabatlar, xavfsizlik va strategik hamkorlik, tadqiqodlar.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida dunyo hamjamiyati bilan xalqaro munosabatlarga kirishishi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham o'tgan 34 yil davomida o'ziga xos ichki va tashqi siyosatini amalga oshirib kelmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan Yevropa va Osiyoni bir-biri bilan bog'lovchi transport ko'prigi hisoblanib, bu mintaqa doimo dunyoning yetakchi davlatlarning diqqat markazida bo'lgan. Bu ahamiyat hozirgi kunga qadar o'z muhimligini saqlab kelmoqda.

Bu xusudda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z nutqlarida: "Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati, ulkan mineral - xom ashyo resurslariga ega ekani tufayli keyingi yillarda yirik davlatlarning doimiy diqqat markazidagi ob'ektga, ularning strategik manfaatlari to'qnashadigan hududga aylanmoqda, shu bilan birga, o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida urush davom etayotgan Afg'onistondagi keskinlik va qarama-qarshilikning hali - beri saqlanib kelayotgan ta'siri ostida qolmoqda"- deb e'tirof etgan. O'zbekiston 1991-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnata boshladi.

Asosiy qism: O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida zamonaviy xalqaro munosabatlarda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan va dunyodagi eng ilg'or davlatlardan biri - AQSH bilan munosabatlari o'z o'rniga ega. O'z vaqtida Islom Karimov AQSH

bilan hamkorlik yuzasidan quyidagilarni ko'rsatib o'tgan: "Hech kimga sir emas – bugungi kunda ham O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa davlatlari orasida hali-beri davom etayotgan qandaydir o'zaro tushunmovchilik haqida bashorat qiluvchilar, boshqacha aytganda, shunday munosabatlarni saqlash va shundan manfaat topish tarafdorlari borligini sezish, kuzatish qiyin emas. O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida barcha yaqin va uzoq qo'shnilar bilan, shu jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa bilan ham o'zaro manfaatli, o'zaro hurmat va hamkorlik aloqalarini olib borishning doimo tarafdori va bu yo'ldan biz hech qachon qaytmaymiz."¹ 1992-2012-yillar oralig'ida O'zbekistonga 130 nafarga yaqin senator va AQSH Kongress xodimlari, shulardan, 100 nafardan ortig'i 2001-yildan keyin AQSH uchun mamlakatning ahamiyatli davrida tashrif buyurishdi. 1992-2012-yillar mobaynida O'zbekistonga 240 nafarga yaqin amerikalik yuqori martabali shaxslar, xususan, Oq uy, Davlat departamenti, turli vazirlik va idoralar vakillari tashrif buyurishdi. O'zbekiston-Amerika munosabatlarini o'rganishda M.Sh.Yuldashevning «Xronologiya amerikano-uzbekskix otnosheniy 1992-2012» ma'lumotnoma to'plamida² ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarga bo'lib o'rganilgan. Mazkur to'plam Amerika Shtatlari va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi 20 yillik diplomatik munosabatlar jarayonida sodir bo'lgan voqealar, dalillar va ikki davlat munosabatidagi muhim sanalarni tizimlashtirib o'rgangan. Mavlon Shukurzoda tomonlararo munosabatlarni 1992-yil diplomatik munosabatlar o'rnatilgan davrdan boshlab, 2012-yil iyunga qadar hamkorlik faoliyatini 3ta asosiy sohada rivojlanishini yillar ketma-ketligida tizimlashtirgan.

Shu bilan bir qatorda, Amerikalik xalqaro munosabatlar bo'yicha tadqiqotchi Kris Sipl ham o'zining ilmiy ishida O'zbekiston - Amerika munosabatlarini uch bosqichga ajratib ko'rsatadi, ammo uning qarashlarida Dundichning dokladidan bir qator farqli jihatlar mavjud. Uning ilmiy ishida O'zbekiston - Amerika munosabatlarining 1- bosqichi 1983-1994 yilarni o'z ichiga oladi. Bu davrni Sipl AQSH hukumatining Markaziy Osiyo davlatlariga sobiq Ittifoqning bir bo'lgi sifatida qarab, bu davlatlarning mustaqil davlat sifatida yashay olmasligiga ishonganligini ko'rsatib o'tgan. Jumladan, AQSH davlat departamentida sobiq SSSR davlatlari bilan aloqalar Bosh kotib birinchi o'rinbosari S.Tellbot tomonidan amalga oshirilgani va uning tashqi siyosiy qarashlarida Rossiyaning o'rni birlamchi o'rin tutganligi sababli sobiq SSSR o'rnida shakllangan yangi mustaqil davlatlarga davlat departamenti deyarli e'tibor bermaganligini ko'rsatib o'tadi.³ O'zbekiston-AQSH munosabatlarining 2-bosqichini 1995-yilda AQSH mudofaa vaziri V.Perrining O'zbekistonga qilgan tashrifi bilan boshlanganini va 2000-yilgacha davom etganligini

¹ Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодий-тимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Асосий мақсадимиз – юртимизда эркин ва обод, фаровон ҳаёт барпо этиш йўлини қатъият билан давом эттиришдир. Тошкент "Ўзбекистон" 2008 й. Б. 148.

² Юлдашев М.Ш. Хронология Американо-Узбекских отношений 1992-2012 Т. "NISO POLIGRAF" 2012 й.

³ U.S. State Department. Foreign Assisment Revue. http://www.usaid.gov/locations/europe_eurasia/car

ko'rsatib o'tgan. 1995-yildan AQSH hukumati bilan O'zbekiston hamkorligida asosan harbiy-strategik sohaning ahamiyati haqida yozilgan. O'zbekiston-AQSH munosabatlarining 3 - bosqichi sifatida 2001-yil 11-sentyabr – 2005-yil 29-iyun mobaynida mavjud bo'lgan hamkorlikni ko'rsatib o'tgan. Uningcha bu davr ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning eng yuqori cho'qqisiga chiqishi bilan bir qatorda aniq yo'nalishga ega bo'lgan muammo va qarama-qarshiliklarning yuzaga kelganligini yoritib bergan.

Bizningcha, O'zbekiston-AQSH munosabatlarini davrlashtirish va bosqichlarga ajratib chiqish yuzasidan yuqoridagi mutaxassislarning qarashlaridan kelib chiqqan va to'ldirishlar qilgan holda ikki tomonlama munosabatlarni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- 1 – bosqich: 1991-yildan – 2001-yilga qadar;
- 2 – bosqich: 2001-yildan – 2005-yilga qadar;
- 3 – bosqich: 2005-yildan – 2016-yilga qadar;
- 4 – bosqich: 2016-yildan - hozirga qadar.

Xulosa: O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi munosabatlarining 34 yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu munosabatlar dinamikasi va tavsifi doimiy ravishda o'zgarib turganligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa ikkitomonlama munosabatlarning davriyligini ko'rsatib beradi. Ikkitomonlama munosabatlarda o'zaro manfaatlarning bir qator masalalar bo'yicha mos kelishi oqibatida yaxshilanganligini va aksincha, ba'zi muammolar yuzasidan sovuqlashganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.A. Hidoyatov “Оснoвы дипломатии”- 2022.
2. . B. Shermuhammedov “Yangi O'zbekiston-xalqaro diplomatiya markaziga aylanmoqda”. Maqola. 2022.
3. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. –2003
4. F.N. Ernazarov “O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalari”. dis,–2018.
5. D.B. Sayfullayev “Mustaqillik davrida O'zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi” .-dis.-2017.
6. “Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi”.-1993.
7. X. Parpiyev “O'zbekiston diplomatiyasining tarixi va istiqbollari”. Maqola. 2021.